

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 316 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'aniybekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamatovna	
YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarsul o'g'li	



MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	238
Abdullaev Erkinjon Azamovich	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	245
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	251
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	257
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	261
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	276
Tulyaganova Aziza	
ISLOMIY MOLIALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI.....	281
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	286
Xamidov Otabek Bakidjanovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHLATLARI	290
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ	298
Максудова Шахиста	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI	304
Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	307
Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	311
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	



DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI

Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Moliyaviy hisob va hisob" kafedrası

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda yuzaga keladigan qarzdorlik muammosi tahlil qilinadi. Debitor va kreditor qarzdorliklar korxonaning moliyaviy munosabatlarining ajralmas qismi bo'lib, ularning hajmi biznesning bozor qiymatini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida debitor va kreditor qarzdorliklarni tahlil qilishning mohiyatini ochib beradi. Ushbu tahlil xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, shuningdek ularning joriy faoliyati va kelgusi rivojlanish istiqbollariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: debitor, kreditor, qarz, majburiyat, rentabellik, moliyaviy holat, kredit, moliyaviy hisobot.

Abstract: The article examines the issue of indebtedness arising within business entities. Accounts receivable and accounts payable constitute an integral part of a company's financial relations, and their volume plays a crucial role in determining the market value of a business. The study reveals the essence of analyzing receivables and payables under the conditions of economic liberalization. Such analysis significantly contributes to ensuring the financial stability of enterprises, influencing both their current performance and future development prospects.

Key words: accounts receivable, accounts payable, debt, liability, profitability, financial condition, credit, financial reporting.

Аннотация: В статье рассматривается проблема задолженности, возникающей у хозяйствующих субъектов. Дебиторская и кредиторская задолженности являются неотъемлемой частью финансовых отношений предприятия, а их объем играет важную роль в определении рыночной стоимости бизнеса. Исследование раскрывает сущность анализа дебиторской и кредиторской задолженности в условиях либерализации экономики. Проведённый анализ способствует обеспечению финансовой устойчивости предприятий, оказывая существенное влияние как на текущую деятельность, так и на перспективы их дальнейшего развития.

Ключевые слова: дебитор, кредитор, задолженность, обязательство, рентабельность, финансовое состояние, кредит, финансовая отчётность.

KIRISH

Hozirgi iqtisodiy sharoitda har bir xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati turli omillar ta'sirida shakllanadi va ma'lum darajada iqtisodiy xatarlarni o'z ichiga oladi. Shu boisdan korxonaning moliyaviy holatini muntazam tahlil qilish, rentabellik darajasini baholash hamda kontragentlarning ishonchligini aniqlab borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday chora-tadbirlar xo'jalik yurituvchi subyektning barqaror rivojlanishini ta'minlash, bozordagi raqobatbardoshligini oshirish va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati ularning debitor va kreditor qarzdorliklari hajmi, dinamikasi hamda tarkibiy tuzilmasi bilan bevosita bog'liqdir. Qarzdorliklarning aniq va ishonchli bahosi nafaqat moliyaviy hisobotlarda, balki sud va suddan tashqari iqtisodiy tekshiruvlar, shuningdek, biznesning bozor qiymatini aniqlash jarayonlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan qarzdorlikni to'g'ri baholash va tizimli tahlil qilish korxona faoliyatining barqarorligi, to'lovga layoqatliligi va investitsion jozibadorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda debitor va kreditor qarzdorliklarning mohiyati, ularning korxona moliyaviy barqarorligiga ta'siri hamda boshqaruv usullari keng yoritilgan. Yarmieva (2018) debitorlikni kamaytirish mexanizmlarini tahlil qilgan bo'lsa, Karimova (2018) kreditor majburiyatlarining tuzilmasi va ularni nazorat qilish usullarini o'rgangan. Pushkina (2018) qarzdorliklarning moliyaviy hisobotdagi rolini asoslab bergan. Mahalliy olimlardan Qozimjonov (2022) esa O'zbekiston korxonalari misolida moliyaviy hisob tizimini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlarini taklif etgan. Ushbu ilmiy manbalar mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatini chuqur yoritib, qarzdorliklarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurligini asoslaydi.



Har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyati davomida boshqa korxonalar yoki jismoniy shaxslar bilan moliyaviy-xo'jalik munosabatlariga kirishadi va bu jarayon natijasida hisob-kitob aloqalari shakllanadi. Ushbu hisob-kitoblar tayyor mahsulotlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlarni yetkazib berish, shuningdek, tovar-moddiy boyliklarni tayyorlash jarayonida amalga oshiriladigan tovar operatsiyalari hamda bank, xodimlar, byudjetdan tashqari jamg'armalar va davlat byudjeti oldidagi qarzlarni to'lash bilan bog'liq notovar operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Buxgalteriya hisobiga ko'ra, debitor qarzdorlik – bu tashkilotning boshqa subyektlar oldidagi moliyaviy talablarini ifodalaydigan aktiv turi bo'lib, kreditor qarzdorlik esa tashkilotning boshqa shaxslar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bildiradi [3].

Debitor va kreditor qarzdorliklar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularning biridan ikkinchisiga aylanish ehtimoli mavjudligi sababli, bu qarzdorliklarni kompleks tahlil qilish va ularning muvozanatini saqlash muhim ahamiyatga ega. Debitor qarzdorlik kompaniyaning jismoniy yoki yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy talablarini anglatadi, ya'ni bu shaxslar korxonaning debitorlari hisoblanadi [4].

Debitor qarzdorlik korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijasida shakllanadi va uning hajmining ortishi korxona aylanma mablag'larining vaqtincha muzlab qolganini yoki likvidlikning pasayganini anglatadi, bu esa moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish zaruratini ko'rsatadi. Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi subyektlar debitor qarzdorlikni o'z vaqtida nazorat qilish, hisob-kitob intizomini mustahkamlash va qarzdorlikni kamaytirish bo'yicha samarali choralarni amalga oshirishlari lozim [5]. Bunday chora-tadbirlar moliyaviy risklarni kamaytiradi, pul oqimlarini barqarorlashtiradi va korxonaning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari mustahkamlaydi. Shu bilan birga, xo'jalik yurituvchi subyektning muddatidan o'tgan majburiyatlari amaldagi qonunchilikka muvofiq shubhali yoki umidsiz qarz sifatida tasniflanadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida shubhali qarz "soliq to'lovchi oldidagi, tovarlarni sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan, shartnomada belgilangan muddatda to'lanmagan hamda kafolat, kafillik yoki bank kafolati bilan ta'minlanmagan har qanday qarz" sifatida ta'riflanadi. Umidsiz qarzlarda esa da'vo muddati tugagan, bajarilishi amalda imkonsiz bo'lgan yoki faoliyati tugatilgan subyektlarga tegishli majburiyatlardir. Shuning uchun bunday qarzlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni hisobdan chiqarish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahliliy, taqqoslama va dinamik usullar qo'llanildi. Asosiy ma'lumotlar manbalari sifatida korxonalarning moliyaviy hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda xalqaro buxgalteriya standartlari tanlab olindi. Qarzdorlikning hajmi, tarkibi va aylanish tezligi iqtisodiy-statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan debitor va kreditor qarzdorliklarni samarali boshqarish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi. Ushbu metodologik yondashuv xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini optimallashtirish, qarz risklarini kamaytirish va iqtisodiy natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tashkilot zimmasidagi majburiyatlar tarkibida eng katta ulush mijozlar tomonidan yetkazib berilgan mahsulotlar uchun to'lanmagan summalariga to'g'ri keladi. Ushbu qarzdorlik korxonaning moliyaviy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, uning umumiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ba'zi majburiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektning aylanma mablag'laridan vaqtincha chiqarib olinishi bilan ifodalanadi. Bir tomondan, ushbu majburiyatlarning ma'lum miqdorda ortishi potensial daromadlarning va likvidlikning o'sishini anglatishi mumkin. Shu bilan birga, majburiyatlarning belgilangan me'yorlardan oshmasligi muhim, chunki ularning haddan tashqari ko'payishi qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyojni keltirib chiqaradi. Bunday holatlarda to'g'ri boshqaruv choralari qo'llash korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda likvidlikni saqlash imkonini beradi.

Qarzdorlikni boshqarish siyosati korxonaning umumiy moliyaviy strategiyasining tarkibiy qismi bo'lib, u aktivlarni boshqarish siyosati bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi — sotuv hajmini oshirish, qarzdorlik miqdorini optimallashtirish va pul mablag'larini o'z vaqtida inkassa qilish orqali to'lov intizomini ta'minlashdan iborat.

Ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyatida kredit mablag'laridan foydalanadilar. Bunday kreditlar, odatda, qisqa muddatli majburiyatlar sifatida balansning passiv qismida kreditorlik qarzdorlik shaklida aks ettiriladi. Kreditorlik qarzdorlik — bu xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa shaxslar oldidagi, to'lanishi shart bo'lgan moliyaviy majburiyatidir. Qarz mablag'laridan oqilona foydalanish kapital rentabelligini oshiradi, daromadlarni ko'paytiradi hamda tashkilotning investitsiya salohiyatini kengaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi.



Xo'jalik yurituvchi subyekt majburiyatlari ichki va tashqi majburiyatlarga bo'linadi. Tashqi majburiyatlarga, odatda, qisqa muddatli qarzlari kiradi, ular tashkilotga tashqi moliyaviy manbalardan kelib tushadi. Majburiyatlar hisob-kitob jarayonlari natijasida shakllanadi va ularning bir qismi tabiiy ravishda yuzaga keladi. Ayrim hollarda esa majburiyatlar mahsulotlar uchun to'lov muddatlarining cho'zilishi yoki to'lovlarning kechiktirilishi natijasida paydo bo'ladi. Har bir kreditor bo'yicha majburiyatlar alohida hisobda yuritiladi, ularning umumiy ko'rsatkichi sifatida esa kreditorlik qarzdorlik summasi belgilanadi. Ichki majburiyatlar korxonaning o'z manbalaridan olinadigan qisqa muddatli qarzlarni o'z ichiga oladi. Bu mablag'lar xo'jalik yurituvchi subyektning bevosita mulki hisoblanmay, asosan, mavjud majburiyatlarni qoplash uchun ishlatiladi. Shu sababli, bunday qarzlari korxonaning qarzi kapitali tarkibiga kiradi.

Majburiyatlar hajmi bevosita tovarlar ishlab chiqarish va ularning sotilish hajmiga bog'liq bo'ladi. Qarzdorlik hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi: ta'minotchilar va pudratchilar bilan tuzilgan to'lov shartnomalari, bozorning to'yinganlik darajasi, tashkilotning kredit siyosati, majburiyatlarni tahlil qilish sifati hamda korxonada qo'llaniladigan hisob-kitob tizimi.

Tashkilotning to'lov qobiliyatini oshirish uchun naqdsiz to'lovlari ulushini ko'paytirish zarur. Bu chora kreditorlik qarzdorlik aylanish sur'atini tezlashtiradi, uning umumiy hajmini kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Qarzdorlikni boshqarishning asosiy vazifasi — mavjud mablag'lardan samarali foydalanish, ularni o'z vaqtida hisobga olish va to'lashni ta'minlash, foiz to'lovlari kamaytirish hamda to'lov kechikishlarini oldini olishdan iboratdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Debitorlik va kreditorlik qarzdorliklar xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy munosabatlarining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ularning barqaror faoliyatida muhim o'rin tutadi. Majburiyatlar hajmi bevosita subyektning iqtisodiy ko'rsatkichlariga hamda bozordagi biznes qiymatiga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalarini baholash nafaqat investitsiyalarni asoslashda investorlar uchun, balki korxona egalari va rahbariyat uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ushbu ma'lumotlardan faoliyat samaradorligini oshirish yoki biznesni optimallashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda foydalanadilar.

Tashkilotning majburiyatlar aylanish sur'atining tezlashuvi va to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish moliyaviy holatning yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, debitor qarzdorlikning tez aylanishi va kreditorlik qarzdorlikning nisbatan sekinlashuvi o'zaro muvozanatni talab etadi. Debitorlarning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishlari korxonaga kreditorlar oldidagi qarzlari o'z vaqtida qoplash imkonini yaratadi. Shuning uchun debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

Qarzdorlikning ortishini oldini olish uchun shartnomalar tuzish jarayonida kontragentlar to'g'risida ishonchli va to'liq ma'lumot to'plash, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish muhimdir. Shuningdek, to'lov muddatlarini, kechikish holatlarida qo'llaniladigan jarima sanksiyalarini va da'vo tartibini aniq belgilash zarur. To'lov intizomining buzilishi holatlarini erta aniqlash maqsadida kontragentlar faoliyatini muntazam — haftalik monitoring asosida kuzatish lozim. Ushbu nazorat jarayonini samarali tashkil etish uchun mas'ul xodim tayinlanishi yoki alohida nazorat bo'limi tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Amalga oshirilgan tahlillar va chora-tadbirlar yuzasidan rahbariyatga muntazam hisobot taqdim etish esa debitor qarzdorlikni boshqarish jarayonini soddalashtiradi, shaffofligini oshiradi va korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, yangi tahriri. — 2016-yil 13-aprel.
2. Qozimjonov A. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning qarzi majburiyatlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2022. — 56 bet.
3. Yarmieva A. M. Analiz debitorskoy i kreditorskoy zadoljennosti i puti ikh snizheniya. Vestnik sovremennykh issledovaniy, 2018, № 11.8 (26), 461–464 s.
4. Karimova A. F. Kreditorskaya zadoljennost sovremennoy kompanii: ponyatiye i struktura. Vestnik sovremennykh issledovaniy, 2018, № 9.4 (24), 125–127 s.
5. Pushkina L. N. Debitorskaya i kreditorskaya zadoljennost: sushchnost i funktsionalnyye priznaki. Alleya nauki, 2018, T. 1, № 8 (24), 450–453 s.
6. Kamalova F. Buxgalterskiy uchët debitorskoy i kreditorskoy zadoljennosti v sovremennoy ekonomike. Yashil Iqtisodiyot Taraqqiyot, 2024, № 1.
7. <https://www.lex.uz> — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
8. <https://www.ifac.org> — Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining rasmiy sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
